



TARAQQIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-24, (December) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

TURSUNPO'LATOV Akmaljon

Namangan davlat universiteti
tadqiqotchisi

ICHKI ISHLAR ORGANI XODIMI MADANIYATI RIVOJIGA AXLOQIY- FALSAFIY MUNOSABATLARNING TA'SIRI

ANNOTATSIYA

Huquqni muhofaza qilish faoliyati insonning kasbiy hayotining ajralmas qismi sifatida nafaqat huquqiy qoidalarga, balki axloqiy me'yorlarga ham asoslanadi. Bu faoliyat faqat jamiyatdagi tartibni saqlash emas, balki insonning shaxsiy burchi, jamoatchilikka xizmat qilish kabi chuqur ma'naviy mas'uliyatni o'z ichiga oladi. Ichki ishlar organlari xodimi uchun kasbiy etika oddiy qonunlarni bajarishdan ko'ra chuqurroq ma'noga ega. Bu uning ishga bo'lgan shaxsiy munosabati, adolatga intilishi, vijdonga muvofiq harakat qilishini talab qiladi.

Kalit so'zlar: salomatlik, tibbiyot, tibbiy madaniyat, ontologiya, salomatlikning ijtimoiy determinantlari, madaniy kompetentsiya, bemorlarning imkoniyatlarini kengaytirish, salomatlik tengligi, texnologik yutuqlar, ruhiy salomatlik.

Inson mehnat qurollaridan foydalanishni o'rganganidan beri, ularni har safar yaxshilashga intilib, mehnat va kundalik hayotni yengillashtirish mukammallikka intilib kelgan. Bu esa o'z navbatida u tomonidan yaratilgan ob'ektlarda namoyon bo'la boshlagan va uning mohirlik darajasini aks ettira boshlagan, va o'z ishining mutaxassisiga aylana borgan.

Bu jarayon fanda professionalizm sifatida talqin qilinadi. Shunday qilib, professionalizm - bu o'z ishiga butunlay bag'ishlanish va hayot davomida shu ish bilan shug'ullanish xususiyati sifatida paydo bo'ldi. Professionalizm inson faoliyatining umumiy ko'rinishi sifatida turli sohalarida turlicha namoyon bo'ladi. Davlat xizmatida, u yoki bu shaklda namoyon bo'ladi. Bu jarayonda ijtimoiy madaniyatning mohiyati umumiy madaniy va shaxsiy jihatlar orqali ochilishi zaruriy jarayonga aylanadi.

Ichki ishlar organi xodimlarining ijtimoiy madaniyati esa jamoat munosabatlarini, shuningdek, individual va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi kommunikatsiyalarni o'z ichiga olgan murakkab tizimni tashkil etadi.

Bu madaniyat kommunikativ jihatlarni ham, xodimlarning professional vazifalarini bajarishda ijtimoiy qadriyatlarni qanday o'rganishi va qabul qilishini aniqlovchi falsafiy tamoyillarni ham qamrab oladi. Ilmiy tadqiqotlar ichki ishlar xodimlarining xulq-atvori haqida, axloqiy prinsiplar, masalan, halollik va adolat, ularning professional samaradorligiga va fuqarolar bilan aloqalariga ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi [1].

Ushbu ma'lumotlar axloqiy standartlarning ahamiyatini ta'kidlaydi, bu standartlar inson huquqlari va ijtimoiy adolat haqidagi falsafiy mulohazalar asosida shakllantiriladi. Falsafa bu standartlar uchun kontseptual asoslarni taqdim etadi, ular nima uchun zarurligini va qanday qo'llanilishi kerakligini tushuntiradi.

Aytish mumkinki, ichki ishlar organlari xodimining axloqiy qiyofasi va uning professional-axloqiy madaniyati har doim jamiyatda yuqori baholangan, ammo ularning roli va ahamiyati mamlakatimizning hozirgi rivojlanish bosqichida sezilarli darajada oshdi.

Shaxsda professional-axloqiy sifatlarni shakllantirish, axloqiy xulq-atvor strategiyalarini rivojlantirish va professional madaniyat ko'nikmalarini oshirish, ayniqsa ichki ishlar organlari oldida turgan muhim ijtimoiy-professional vazifalarni hal qilishda asosiy rol o'ynaydi [2].

Hozirgi vaqtda ichki ishlar organlari xodimlarini professional-axloqiy tarbiyalash va axloqiy rivojlanishini ta'minlash zamonaviy kadrlarini tayyorlashda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Sheglov ta'biri bilan aytganda, ichki ishlar organlari xodimining professional-axloqiy madaniyatini tarbiyalash xususiyati ko'p jihatdan shundan iboratki, ular ijtimoiy funksiyalarni bajarishda, huquqni muhofaza qilish va huquqni qo'llash faoliyatida ishtirok etishda, jinoyat olami bilan yuzma-yuz kelishda axloqiy me'yorlarga, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarga, haqiqiylik, sharaf, qadr-qimmat, halollik, ijtimoiy adolat, jazoni adolatli tarzda amalga oshirish va qonunsizlikka nisbatan yangi qarashlarni shakllantiradi [3].

Zamonaviy Ichki ishlar xodimlari axloqiy jihatdan o'rta asrlar ritsarlari kabi bo'lishi kerak, ritsarlar qonuniy hukmdorlariga xizmat qilish va vatandoshlarini himoya qilish uchun o'z hayotlarini ham qurbon qilishga tayyor bo'lishlari kerak edi [4].

BMT Bosh Assambleyasi ushbu hujjatni qabul qilgach, barcha a'zo mamlakatlarning hukumatlariga Kodeksni huquq tartibini saqlovchi barcha xodimlar qo'llashlari kerak bo'lgan prinsiplar to'plami sifatida foydalanishni tavsiya etdi. Unga ko'ra, ichki ishlar xodimlari odamlarning "hayot sifati"ni ta'minlaydi, har bir kishini noqonuniy harakatlardan himoya qiladi va bu kasbning yuqori darajadagi mas'uliyatini talab etadi [5].

Umuman olganda, B.Kononenko ta'kidlaganidek, "kasb tanlash va o'z qobiliyatlarini takomillashtirish darajasida shaxsning madaniyat darajasi tomonidan belgilab qo'yiladi [6]."

Jamiyatda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun xodim faqat qonunni bilishi yoki tartibga amal qilishi bilan cheklanib qolmasdan, o'zining ichki ma'naviy olamiga ham e'tibor qaratishi zarur. Axloqiy tarbiya bunda muhim o'rin tutadi, chunki u xodimning jamiyatdagi rolini, uning insonlarga xizmat qilish mas'uliyatini chuqur tushunishini ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, kasbiy etika jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatni belgilaydigan, xodimning shaxsiy yuksalishiga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, u faqat tashqi intizom emas, balki ichki ma'naviy tartibni ham shakllantiradi [7].

Yuridik kasbiy faoliyat, boshqa sohalaridan farqli o'laroq, to'g'ridan to'g'ri insonlar bilan muloqotga bog'liq bo'lgani sababli, unda muayyan axloqiy me'yorlar va qoidalarga rioya qilish, ma'naviy-axloqiy tarbiya albatta zarurdir [8].

Har bir huquqni muhofaza qiluvchining ma'naviy qiyofasining muhim xususiyati - uning xizmat vazifalariga bo'lgan munosabati va professionalizmi hisoblanadi. G. Lazutining ta'kidlashigaga ko'ra, ilmiy modelning qadriyatlarini "jamiyat oldidagi vazifa" tushunchasi bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u professional axloqning asosi hisoblanadi.

Professional axloqning asosiy vazifasi esa shunday bir muomalani ta'minlashdan iboratki, bu muomala orqali professional guruh a'zolari o'z faoliyatlari orqali eng yaxshi natijalarga erishadilar va shu tariqa o'z faoliyatlarining maqsadga muvofiqligini [9] to'la oqlaydilar.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, professional jihatdan muhim bo'lgan shaxsiy sifatlar fuqarolik yaxlitligi, vatandorlik, yuqori ijtimoiy faoliyat, qonunga chuqur hurmat, huquqiy davlatning ijtimoiy qadriyatlarini, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini, yuqori axloqiy ong, axloqiy e'tiqodlarning mustahkamligi va burch tuyg'usiga asoslanishi kerak. Chunki, Ichki ishlar organlari tizimiga kiruvchi xizmatlar, kasblar, mutaxassisliklar va lavozimlar, o'zining professional va ilmiy mazmuni jihatidan o'zaro sezilarli farqlarga ega.

Ushbu ko'p qirrali tizim, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash va huquqni muhofaza qilishning samaradorligini oshirish maqsadida, har bir bo'linma va mutaxassislikning o'ziga xos rolini va maqsadini belgilaydi. Shu bilan birga, ularning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri tizimning umumiy samaradorligini ta'minlaydi [10].

Yoqrida fikrlarni inobatga olgan va I. Sharova va G. Andreyevning pozitsiyalari [11] rini, qo'llab-quvvatlagan xolda, ichki ishlar organlari xodimining kasbiy-etik madaniyati tushunchasi, bu - shaxsning ichki ishonchlari va qadamlari sifatida qabul qilingan kasbiy-etik qadriyatlar tizimi bo'lib, ijtimoiy me'yorlar va huquqiy normalar asosida shakllangan. Bu sistema kasbiy vazifalarni bajarishda axloqiy tarbiya va xulq-atvor qoidalariga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Shaxsning professional xulq-atvori va axloqiy qiyofasini ijtimoiy va huquqiy mezonlar orqali tartibga soladi, va bu ma'naviy asosda har bir xodimning kasbiy faoliyatida o'z ifodasini topadi deb hisoblaymiz. Yuqori darajadagi professional etikani ta'minlash uchun ichki ishlar organlaridagi xodimlarning axloqiy va professional tarbiyasiga ilmiy tadqiqotlarda muhim ahamiyat beriladi. Ayniqsa, xodimlarni tayyorlash jarayonida bu tarbiya o'ziga xos ahamiyatga ega, chunki u xizmatning axloqiy asoslarini va xizmat burchiga qo'yiladigan talablarni rivojlantirishga qaratilgan.

Professional va axloqiy tarbiya - bu ichki ishlar organlarida xizmat faoliyati talablariga muvofiq ravishda xodimlarda zaruriy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan tizimli va maqsadli faoliyatdir. Bu jarayon, xodimlarning axloqiy yuzasini tashkil etuvchi sifatlarning kompleksini yaratishga yordam beradi va ularning shaxsiy dunyoqarashini hamda xizmat burchiga bo'lgan munosabatini belgilaydi.

Shu bilan birga, professional va axloqiy tarbiya xodimlarning ma'naviy yetukligini oshirish, ularni axloqiy me'yorlar va professional standartlarga muvofiq ravishda tarbiyalash orqali, ular xizmat qilayotgan muassasa yoki organning umumiy samaradorligini ta'minlaydi. Bu jarayon, shuningdek, xizmatning axloqiy asoslari va burchga bo'lgan yondashuvni tushunish orqali, xodimlarning professionallik va axloqiy integritetini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Agar ichki ishlar xodimlarining etikasi bo'yicha huquqiy masalalarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, so'nggi yillarda olimlar ko'plab mamlakatlarda davlat xizmatining etikasi haqida gapirmoqda. ining etikasi, davlat xizmatchilarining ishlarida axloqiy me'yorlarni belgilab, ularni kundalik amaliyotda qo'llashni ta'minlashdir. Bu, davlat xizmatchilarining professional sifatlarini oshirish, axloqiy tamoyillarni amalda saqlash va umumiy xizmat sifatini yaxshilashga yordam beradi. ichki ishlar organlari xodimining axloqinini tartibga solish orqali ularining shaxsiy va professional xulq-atvori bir-biriga moslashadi, bu esa ularning ishlariga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi va davlat xizmatining samaradorligini oshiradi [12].

Xodimlarning axloqiy va professionallik integritetini saqlash, shuningdek, xizmatning umumiy sifatini oshirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratadi. Professional axloqiy madaniyatni rivojlantirish vazifalarini hal qilishda ichki ishlar organlarining rahbari maxsus bilimlar kompleksiga muhtojdir. Bu bilimlar pedagogika, etika, tibbiyot, psixologiya, falsafa va sotsiologiya sohalarini o'z ichiga oladi, shuningdek, rahbarlik va tashkilotchilik ko'nikmalarini ham talab qiladi [13].

Hayot tajribasi ko'rsatadiki, ushbu vazifalar muvaffaqiyatli bajariladi, ayniqsa, xizmat jamoalarida ijtimoiy-axloqiy muhit barqaror bo'lsa va tajribali xodimlar yangi xodimlarga axloqiy barqarorlikni namoyish qilishda yordam bersagina, bu esa professional madaniyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [14].

Professional axloqiy va tibbiy madaniyatni tarbiyalash uzluksiz jarayon bo'lib, bu jarayon kundalik faoliyat, professional tayyorgarlik va maxsus tarbiyaviy tadbirlar bilan bog'liq. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun, xususan, yosh xodimlar uchun, aniq va batafsil ishlab chiqilgan dasturlarga ehtiyoj mavjud. Dasturlar tarbiyalash jarayonining bosqichlarini qamrab olishi, axloqiy bilimlarni oshirish, axloqiy qadriyatlarni tushuntirish va ulardan foydalanish, shuningdek, individual axloqiy dasturlarni ishlab chiqishni va to'g'ri axloqiy baholarni shakllantirishni o'z ichiga olishi kerak.

Axloqiy me'yorlarni va to'g'ri axloqiy xulq-atvorni kundalik hayotda va xizmat vazifalarida mustahkamlash orqali, ichki ishlar organlarining umumiy samaradorligini oshirish va xodimlarning professional axloqiy madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘z navbatida, xizmat jarayonlarida yuqori axloqiy standartlarni saqlashni va xodimlarning axloqiy integritetini ta‘minlashni maqsad qiladi. Axloqiy va huquqiy tarbiya doirasida, axloqiy me‘yorlar va huquqiy talablar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish muhimdir [15].

Bunga asosiy sabab huquqni muhofaza qilish faoliyatida, axloqiy tamoyillar huquqiy xarakterga ega bo‘ladi, chunki ular xodimlarning xulq-atvorini tartibga soluvchi qoidalardir. Bu tamoyillar xodimlarning professional faoliyatida huquqiy normativlar bilan uyg‘unlashtiriladi va ular har kuni ish jarayonida qo‘llaniladi. Bularda kelib chiqib Kolesov fikri bilan ta‘rif beradigan bo‘lsak, zamonaviy fuqaro tasvirini butunlik sifatida qaraganda, u quyidagi yetti asosiy sifat bilan tavsiflanishi kerak: axloqiylik, vijdon, xotira, ruhiy holat, tasavvur, iroda va xarakter.

Ushbu sifatlar bir-biri bilan uyg‘un va organik tarzda namoyon bo‘lib, inson va jamiyatning material madaniyatida ko‘zga tashlanadi [16].

«Insonning holatini o‘rganish» J.J. Russoni shunday xulosaga keltirgan: insonni yoki «o‘zi uchun inson» deb tarbiyalash mumkin, yoki «boshqalar uchun yashovchi fuqaro» deb tarbiyalash mumkin. Birinchi holatda u jamiyat tashkilotlariga zid bo‘ladi, ikkinchi holatda esa o‘z tabiatiga zid bo‘ladi, shuning uchun «birini tanlashimiz kerak – yoki inson yaratish yoki fuqaro yaratish, chunki har ikkisini bir vaqtning o‘zida yaratish mumkin emas...»

Albatta, tarixiy nuqtai nazaridan hozirgi holatni baholovchilar uchun axloqiy hukmlarning tengligini ta‘kidlash qulay. Fanda haqiqat va xato mavjud bo‘lgani kabi, axloqda ham haqiqat va yolg‘on baholar, to‘g‘ri va noto‘g‘ri mezonlar mavjud. Har qanday axloqiyat odamlarning haqiqiy hayot jarayonini ma‘lum guruhlarining manfaatlari prizmasidan aks ettiradi, va bu aks ettirish faqat jamiyatning manfaatlari tarixiy ob‘ektiv qonuniyatlarga mos kelganda to‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Bu esa biz quraytgan Yangi O‘zbekiston uchun muhim goyalardan biri hisoblanadi, avvalgi boblarimizda ta‘kidlaganimiz Inson-Jamiyat-Davlat tamoyilining asoslaridan biri tashkil etishi bilan bog‘liq tushuncha xisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. А.С. Душкин, С.Н. Трипутин, М.Е. Гурьев. Профессионально-нравственная культура сотрудников органов внутренних дел. Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России № 4 (76) 2017. с 168-171
2. Гурьев, М. Е. Анализ особенностей воспитания профессионально-нравственной культуры сотрудников органов внутренних дел: материалы X Международной научно-практической конференции «Теория и практика актуальных исследований». – Краснодар: Научно-издательский центр «Априори», 2015. – С. 33–42.
3. Щеглов, А. В. Воспитание профессиональной нравственной культуры сотрудника органов внутренних дел России: дис. ... канд. пед. наук. СПб., 1994. – 209 с.
4. Руа Ж.Ж., Миша Ж.Ф. История рыцарства. М., 2007.
5. Международная защита прав и свобод чело века: сб. док. М., 1990.
6. Кононенко Б.И. Профессиональная культура сотрудников органов внутренних дел. Лекция. М.: МЮИ МВД России. 1998. С. 3.
7. Мухина Т. Г. Психодидактические условия формирования коммуникативной культуры будущего педагога в процессе вузовского образования / Т. Г. Мухина, А. Ю. Сутугин // Мир науки, культуры и образования. Горно-Алтайск. - 2015. - С. 121-123
8. Вызулин.Е.А. Этические принципы и нормы деятельности сотрудников органов внутренних дел. Вестник по педагогике и психологии Южной Сибири № 4. - 2015 с. 39-49
9. Лазутина Г.В. Профессиональная этика журналиста. М., 2006. С. 44.
10. Экстремальная психология в особых условиях деятельности: монография / ред. Б. Г. Бовин, А. В. Кокурин, А. М. Раков. М., 2015. С. 37.
11. Андреев Г.И. Формирование профессионально-этической культуры курсантов образовательных учреждений МВД РФ: дис.канд.пед.наук Чебоксары, 2002. 251 с
12. Садкина Т. М. Роль профессиональной этики в формировании профессиональной культуры государственных служащих в России // Современное общество и власть. 2017. № 2 (12).
13. Москаленко, С. Г. Организация профессионально-нравственного воспитания сотрудников органов внутренних дел // Экономический вестник МВД России. – 2014. – № 3. – С. 54–64.
14. Никоноров, Е. А., Вохонцева, Н. С. Профессионально-нравственное воспитание сотрудников органов внутренних дел МВД России // Вестник Московского университета МВД России. – 2014. – № 6. – С. 261–263.
15. Олейников.В.С, Каданцева.Н.П. Гражданственность юриста как основа нравственно-правового воспитания. Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России № 1 (57) 2013 с 176-182
16. Колесов, В. И. Духовно-нравственная идеология воспитания – генетическое и генерирующее ядро устойчивого развития человека // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. – 2011. – № 2 (50).